

**YANGI O`ZBEKISTONDA MA`NAVIY-MA`RIFIY VA TA`LIM
SOHALARIDAGI ISLOHATLARNING ASOSIY YO`NALISHLARI VA
NATIJALARI**

*Xaitvoyeva Dildora Kutimbek qizi
TDPU tarix fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lif tizimidagi o'zgarishlar, inson omili, qadr qimmati kabi ma'lumotlar bayon qilingan. Maqolada hozirgi kunda yoshlarimizga berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish, oliy ta'lif tizimini takomillashtirish kabi ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Qonunlar, farmonlar, ta'lif tizimi, inson qadri, renessans, malakali mutaxassislar, taraqqiyot strategiyasi ,

“Eng ahamiyatli vazifa, yosh avlodga puxta bilim berish, ularni yetuk inson qilib tarbiyalash”

Sh.M.Mirziyoyev¹

Ma`naviyat –jamiatning joni va ruhidir. Ruhga jon ba`g`ishlaydigan tilsim esa-bu ta`limdir.Yangi O`zbekiston taraqqiyotiga hissa qo`shish yaratganing o`zi bergen tarixiy imkoniyatdir, g`oyasini ilgari surayotgan yurtboshimiz Yangi O`zbekistonni yetuk ma`naviyatli jamiat,erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantiramiz shoirini ilgari surmoqdalar.Bu g`oyalarning asosiy tayanch ustuni deb qaralayotgan uchinchi Renessans bunyodkorlari bo`lmish yoshlar bu jamiyat qurilishiga albatta o`z bilim va tajribalari bilan hissa qo`shishlari darkor. Bunday ma`sulyatli yo`lga ta`lim, ma`naviyat, yetuk dunyoqarash asosiy omil sanaladi. Bekorga najot-ta`limda, najot–tarbiyada, najot-bilimda deb ta`kidlanayotgani yo`q. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli

¹ Shavkat Mirziyoyev . Yangi O'zbekistonstrategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" 2021.- 22.bet
www.pedagoglar.org **5-to'plam 1-son mart 2024**

erishiladi. Bu yo`lda tizimli harakatni ta`minlovchi kasb egalari esa ustoz va murabbiylardir. Ularning bilim, ko`nikma, malaklari va salohiyatlari oraqaligina yoshlarning ma`naviyatini kuchaytirish, bilimlarini oshirish mumkin. Bunday ma`suliyatli ishda ularni yanada shijoatkor tarzda faoliyat olib borishlari uchun hukumat tomonidan turli farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

Eng ahamiyatlisi yangi Konsitutsianing 52-moddasida² “O'zbekiston Respublikasida o`qituvchining mehnati davlat va jamiyatni rivojlantirish,sog`lom va barkamol avlodni shaklantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma`naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e`tirof etiladi. Davlat o`qituvchilarning sha`ni qadr qimmatini himoya qilish ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi ,kasbiy jihatdan o'sishi to`g`risida g`amxo'rlik qiladi” deb asosiy qonunda ifodalanishi kasbiy faoliyat davomida samaradorlikni oshirishda kuch va g`ayrat berishi shubhasiz. Bu qoidalar mamlakatdagi 685 ming nafardan ortiq o`qituvchining professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo`llab – quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro`sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O`z kasbida e`tirof topgan har qanday kasb egasi shuhbasiz o`z bilim va salohiyatini ishga solgan holda, o`z vazifasiga ma`suliyat bilan yondashib,o`z ustida ishlab har tomonlama yetuk shaxslarning kamol topishida , bilim va tarbiyasiga hissa qo`shishga ishonamiz. Bizda “Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun” va “Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak³” tamoyillari asosida fuqarolarning ijtimoiy muammolarini hal etish, huquqiy va qonuniy manfaatlarini ta'minlab kelmoqda.Globallashuv jarayonida o`z fikri, o`z so`zi, aniq bilimga ega bo`lgan yoshlarga turli tahdid va g`oyalarga, olib kelayotgan ta`lim tarbiyasi orqaligina yon berishi mumkin. Amerikalik o`qituvchi jamoat arbobi R.Emerson ta`kidlashicha ,taraqqiyotning chinakam belgisi boylik yoki ta`lim darajasi emas,

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида .Т 2023.Б 13

³ Shavkat Mirziyoyev . Yangi O'zbekiston strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr.-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416.bet

shaharning kattaligi emas ,hosilning mo`l ko`ligi ham emas ,balki o`sha o`lka bag`rida tarbiya topgan inson qiyofasidir. Shunday ekan bu tizimini yanada rivojlantirish, shart sharoitlarni kengaytirish yo`llari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq qilinayapdi. Bu ishlarda jahon tajribasi va standartlarini ham inobatga olinib, ma`naviyatimizga xos va milliy o`zligimizga mos jihatlari ta`lim tizimga tadbiq qilinmoqda. Bundan tashqari yoshlarni dunyo tajribasini o`z ko`zi bilan ko`rish va u yerda ta`lim olish uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. O`zbekistonning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur ,jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarini yetakchi xorijiy talim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar tayyorlash maqsadida “El yurt umidi ” jamg`arasi tashkil qilindi. Xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlari ilmiy markazlarida bakalavriat magistiratura va doktaranturada ta`lim olishlari uchun turli stipendiya tanlovlарini e`lon qilinib kelinmoqda.E`tiborli jihat shuki aynan ushbu yo`nalishlarda pedagoglar va ilmiy kadrlarni tanlab olinishi va tayyorlanishini hamda o`qishdan so`ng munosib ishga joylashishga kasbiy jihatdan o`sishiga ko`maklashish qonun doirasida belgilanishi ham davlat tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlardandir.

Agar inson ilm nuri bilan o`z yo`lini yoritmasa ,zulmat va nodonlik ko`chasida qoladi .Kishi qalbining nuri ilm va ma`rifat bilan baquvvat bo`ladi. Insoniyatning qadri ilm bilan hosil bo`ladi. Ilmda hali hech kim zarar ko`rgan emas.Ilmni egallab olish esa bir san`atdir. Abdibek Sheroziy

Bugun yaratilayotgan sharoitlarda unumli foydalanish shart va zarur.Sabab dunyodagi ayrim mamlakatlarda bunday tizimlar afsuski ayrim sabalarga ko`ra hali yo`q. Nigeriyaning Makoko qishlog`ida suvda suzib yuruvchi maktab qurilgan. Maktab qishloq odamlari tomonidan tashkillashtirilgan. Maktabning suvda suzishiga sabab yer solig`idan qutilishdir.Nepal sharoitida ayrim hududlarida o`quvchilar tabiat qo`ynida dars o`tishadi, aslida esa xona yo`q. Hindistondagi Nu Dehlida esa o`quvchilar ko`prik tagidagi maktabda ta`lim olishmoqda. Shunday ekan bosqichma bosqich yaratilayotgan sharoitlarga bizning ham javobimiz bo`lishi kerak. Davlatning rivojlanganlik darjasini nafaqat iqtisodiy o`sish

ko`rsatkichlari, balki mamlakat ichidagi ta`lim sifati hamda fuqorolarning savodxonlik darajasi bilan ham baholanayotgani sir emas.Ta`limni sifatini yuqoriligi mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblanadi. Ta`lim sifatini oshirishda bu yo`lini bosib o`tgan davlatlar tajribasini olish ham muhim ekanligini hisobga olsak bugungi kunda Finlandiya o`quv dasturlari tizimi va o`qituvchilar bilan ma`lumot almashish va joriy etish tizimi yo`lga qo`yilmoqda. Davlat rahbarining mamlakatimizning tashqi siyosatida ustuvor yo`nalish dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik hamkorlikning o`zaro manfaatli tizimini rivojlantirshidan iborat strategiyasi,ta`lim sohasini ham chetlab o`tayotgani yo`q. Taraqqiyot strategiyasi doirasida rivojlangan davlatlar kabi uzlusiz ta`lim tizimini muntazam takomillashtirib borish,sifatli ta`lim tarbiya berish, malakali kadrlar tayyorlash bo`yicha sezirarli islohatlar amalga oshirilmoqda. Ta`lim sohasidagi islohatlar natijasida maktabgacha qamrov darjasи 27,7 foizdan 67 foizga,maktabdagи malakali oily ma`lumotli o`qituvchilar 81,8 foizdan 87,8 foizga, yoshlarni oily ta`lim bilan qamrovi 9 foizdan 38 foizga yetkazildi.Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta`limda qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan 80 foizga yetkazish,7 mingdan ziyod yangi nodavlat MTTlarni tashkil etish ,xalq ta`limi tizimida qo`shimcha 1,2 milion o`quvchi o`rnini yaratish ,shuningdek oily ta`limda qamrov darjasini 50 foizga yetkazish belgilab olindi⁴. Oliy ta`lim tashkilotlariga akademik erkinlik, o`z o`zini boshqarish tadqiqotlar o`tkazish va o`qitish erkinligi huquqi taqdim etilmoqda. Ushbu normaning kiritilishi professor-o`qituvchilarning o`quv jarayonidagi mustaqilagini ta`minlashga xizmat qiladi.

Ta`lim sohasidagi islohatlarda hech bir yosh qatlami e`tibordan chetdan qolmagan.Yangilangan konsutsiyada ilk marotaba bog`cha yoshdagi bolalarning ta`lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining joriy etilishi, bolaning o`rta ta`lim olishining majburiyligi va davlat tomonidan bepul ta`minlanishi, davlatning alohida majburiyatları sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta`lim

olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizimlar ishlab chiqilgan. Bu shunday nuqsonlarga ega bolalarning yakkalanib qolmasligi , jamiyatning to`laqonli a`zosi sifatida shaklanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir. ”Biz uchun jamiyatda begona bola yo`q va bo`lmasligi kerak, hammasi o`zimizning, O`zbekistonimizning bolalari” SH.M.Mirziyoyev

“Mamlakatimizdagidek boy tarix,bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo`q” Bu merosni chuqur o`rganishimiz ,xalqimizga ,dunyoga yetkaza bilishimiz kerak⁵.” Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak .Aks holda uning tarbiyaviy ta`siri bo`lmaydi. Biz yoshlarni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o`rgatishimiz, ularni tarix ilmi tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur deb ta`kidladi davlat rahbari .

Xulosa, o‘rnida shuni aytish lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan bunday o‘zgarishlar yangi-yangi qonun va qarorlarning

ishlab chiqilishi, insonlarning hayotida o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Xalqimiz aytganidek: “Kim o‘z qadrini bilmas ekan,

o‘zgalar qadrini hech ham bilmas”. Dahaqiqat, inson o‘z qadrini bilishi uchun ma’rifat sohibi bo‘lishi kerak. Ma’rifatli bo‘lishi uchun esa ko‘proq kitob mutolaa qilishi, ajdodlarimizdan qolgan boy meroslarni hurmat qilish kerak.

Hozirgi kunda yurtimizda bilim olish uchun, tadbirkorlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari ta’limda islohatlarning yangi ko‘rinishlari, o‘qituvchi pedagoglarni qayta o‘qitish tajribasiz pedagoglar o‘rniga bilimli yosh pedagoglarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda, oliy ta’lim muassasalarda yoshlarning bo‘s sh vaqtini maroqli o‘tkazish maqsadida ko‘plab ko‘rik tanlovlari, kitobxonlik musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizning bilim tajribalarini oshirish maqsadida, chet elga o‘qishga yuborish, ta’lim tizimini o‘rganish va uni hayotga tadbiq etish uchun keng

⁵ Nazarova N, Jumaniyazova N “YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA UNDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH MASALASI” Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2023 https://t.me/Erus_uz Multidisciplinary Scientific Journal April, 2023 138

imkomiyatlar yaratib berilmoqda. Zero,biz yoshlarga berilayotgan bunday imkoniyatlar va imtiyozlardan unumli foydalanib, yurtimiz rivojiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

- 1.Shavkat Mirziyoyev . Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021
2. Shavkat Mirziyoyev . Yangi O‘zbekiston strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr.-Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. –
3. Xalq so‘zi gazetasi. N.29. 11.02.2023 yil
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son qarori, 2022 yil 22-fevral